

TO‘GARAKLAR FAOLIYATINING KREATIV FIKRLASH RIVOJIGA TA’SIR ETUVCHI PEDAGOGIK OMILLARI

Boymatov Baxrom Eshmamatovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail:boymatov.baxrom@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabdan tashqari ta’lim shakli sifatida to‘garaklar faoliyatining o‘quvchilarda kognitiv salohiyat, mustaqil izlanish ko‘nikmalari va ayniqsa, kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Unda kreativ fikrlashni shakllantirish uchun ijtimoiy-psixologik omillar, motivatsiya, ko‘p fanli (multidisiplinar) yondashuvlar va jamoaviy ijodiy faoliyatning pedagogik mexanizmlari oolib berilgan.

Kalit so‘zlar: to‘garak faoliyati, kreativ fikrlash, sinfdan tashqari ta’lim, motivatsiya, ijodiy muhit, barkamol avlod markazlari, texnoparklar, multidisiplinar yondashuv, pedagogik tizim, shaxsiy salohiyat, ijodiy faoliyat.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В КЛУБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В статье анализируется значение клубной деятельности как формы внеурочного образования в развитии познавательного потенциала, навыков самостоятельной исследовательской деятельности и, прежде всего, творческого мышления учащихся. Раскрываются социально-психологические факторы, мотивация, междисциплинарный подход и педагогические механизмы коллективной творческой деятельности для формирования творческого мышления.

Ключевые слова: клубная деятельность, творческое мышление, внеурочное образование, мотивация, творческая среда, центры гармоничного развития, технопарки, междисциплинарный подход, педагогическая система, личностный потенциал, творческая активность.

PEDAGOGICAL FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN CLUB ACTIVITIES

Abstract. The article analyzes the importance of club activities as a form of extracurricular education in the development of cognitive potential, skills of independent research activity and, above all, creative thinking of students. It reveals

socio-psychological factors, motivation, interdisciplinary approach and pedagogical mechanisms of collective creative activity for the formation of creative thinking.

Keywords: club activities, creative thinking, extracurricular education, motivation, creative environment, centers of harmonious development, technology parks, interdisciplinary approach, pedagogical system, personal potential, creative activity.

To‘garak faoliyati məktəb tə’limida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini chuqurlashtirish, ulardagı yashirin salohiyatni ochish, mustaqil izlanish va ijodiy faoliyikni rag‘batlantirishga xizmat qiladigan muhim ta’limiy-tarbiyaviy tizim hisoblanadi. U darsdan tashqari faoliyatning erkin, qobiliyatga asoslangan va qiziqishga bog‘liq shakli sifatida o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida, jumladan, uning kreativ fikrlash qobiliyati rivojida muhim o‘rin tutadi. Zero, to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchi muallim nazoratidan ko‘ra ko‘proq o‘z qiziqishi va tashabbusi bilan harakat qiladi, bu esa ijodiy yondashuv va mustaqil fikrlash uchun zarur muhitni yaratadi. Shu jihatdan, to‘garaklar faoliyati ta’limning ma’naviy-ma’rifiy maqsadlari bilan uyg‘un holda kreativlikni rivojlantirishning muhim pedagogik manbai sifatida qaralishi mumkin[3].

Sinfdan tashqari ta’lim, jumladan, to‘garaklar faoliyati o‘quvchilarning faqat bilim olish faoliyatini emas, balki shaxsiy izlanishga asoslangan, erkin, motivatsiyali va ijodiy ruhdagi rivojlanishini ta’minalashga qaratilgan muhim pedagogik tizim hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi o‘quvchining individual salohiyatini ochish, qiziqishlarini rag‘batlantirish va mustaqil izlanish faoliyatini shakllantirishdan iborat. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar majburiy ta’lim formalariga nisbatan faoliylik, erkinlik va ixtiyorilik tamoyillariga tayanadi. Bu esa kreativ fikrlashning rivojlanishi uchun tabiiy sharoit yaratadi.

Ijodiy faoliyikni rag‘batlantirishda to‘garaklardagi ixtiyoriy ishtirok muhim omil bo‘lib, o‘quvchining ichki motivatsiyasi, shaxsiy qiziqishi va yangilikka intilishini kuchaytiradi. Bunday faoliyat jarayonida bola o‘z qobiliyatini sinab ko‘radi, ilhomlanadi, savol beradi, taxmin qiladi va yechim qidiradi. Bu jarayonlar esa bevosita kreativ tafakkurning asosiy komponentlarini faollashtiradi. To‘garaklarda ijodiy izlanish imkoniyatlari kengligi, multidissiplinar yondashuv va real hayotga yaqin ssenariylar orqali ta’lim jarayonida shaxsiy ma’no kasb etadigan tajriba orttiriladi. Zero, “Ilmiy-texnikaviy ijodkorlik jarayoni - metodik tizim bo‘lib, unda o‘rgatuvchi va o‘rganuvchilar o‘zaro bog‘liq munosabatda bo‘ladilar. Shuning uchun ham bu faoliyatning samarasi asosan ikkala tomon (rahbar va o‘quvchi)ning ham baravar maqsadga yo‘naltirilgan ongli va faol ijodiy ishlariga bog‘liq bo‘ladi”[1].

Shu nuqtai nazardan, sinfdan tashqari ta’lim faqat fanni chuqurlashtirish vositasi emas, balki o‘quvchining kreativ tafakkurini, shaxsiy ma’naviy dunyoqarashini va

ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi muhim tarbiyaviy muhit sifatida ham ko‘riladi. Uning mazmuni erkinlik, tashabbuskorlik va shaxsga yo‘naltirilganlik prinsiplari asosida kreativlikni barkamol rivojlantirishga xizmat qiladi.

To‘garaklarning tarbiyaviy funksiyasi ham juda muhim. Ular bolani jamoa bilan ishslash, o‘zaro fikr almashish, muloqot qilish, yordam berish, o‘z fikrini himoya qilish va bir vaqtda boshqalarning g‘oyasini inobatga olishga o‘rgatadi. Bunday ijtimoiy faol muhitda bolada faqat aqliy rivoj emas, balki axloqiy, irodaviy, hissiy va axborot madaniyati kabi fazilatlar ham shakllanadi. Kreativ fikrlash, o‘z navbatida, bu tarbiyaviy jarayonda shaxsning ichki pozitsiyasini, ma’naviy erkinligini va yangilikka bo‘lgan mas’uliyatli munosabatini namoyon qilishda xizmat qiladi.

Shuning uchun to‘garaklardagi ta’limiy-tarbiyaviy jarayon ijodiy muhitda shakllanadigan, shaxsga yo‘naltirilgan va yaratuvchanlikka asoslangan faoliyat tizimi sifatida kreativlikni nafaqat shakllantiradi, balki uni qo‘llash va real hayotga tatbiq qilishga o‘rgatadi. Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlari bilan to‘laqonli uyg‘unlikdadir.

Barkamol avlod markazlari, texnoparklar va ijodiy studiyalar bugungi kunda maktabdan tashqari ta’lim tizimining kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan eng samarali maydonlaridandir. Ushbu tashkilotlar to‘garak faoliyatini maqsadli, zamonaviy va innovatsion asosda yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Ularda bolalarning faqat ma’lum bir yo‘nalishdagi bilimlarini chuqurlashtirish emas, balki yaxlit ijodiy fikrlash jarayonini faollashtirish, ya’ni izlanish, eksperimentatsiya, muammoli tahlil va loyiha asosida ishslash qobiliyatlarini shakllantirish asosiy maqsad qilib belgilangan.

“Barkamol avlod” markazlari turli sohalar bo‘yicha tashkil etilgan to‘garaklar orqali bolalarning intellektual va madaniy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu markazlardagi faoliyat ko‘proq ijodiy mashg‘ulotlar, tadqiqot elementlari va ijtimoiy tashabbuslar bilan boyitilgan bo‘lib, kreativlikni amaliy faoliyatga bog‘laydi. Bolalar bu yerda standart javob emas, o‘z nuqtai nazarini bildirish, yangicha g‘oya taklif qilish va uni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu faoliyat formatida o‘quvchida mulohazakorlik, innovatsion yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi[5].

Texnoparklar va fan to‘garaklari esa, bolalarning ilmiy va texnik ijod salohiyatini ochishga xizmat qiladi. Ular asosan STEM va STEAM tamoyillariga tayangan holda robototexnika, dasturlash, muhandislik va loyiha ishlanmalariga yo‘naltirilgan. Bu kabi muhitlarda o‘quvchilar tajriba orqali fikr yuritadi, gipoteza qiladi, sinchkovlik bilan tahlil qiladi va yaratuvchi sub’ektga aylanadi. Texnik ijodiy jarayonda kreativ fikrlash nafaqat innovatsiya yaratishga, balki fanlararo bilimlarni uyg‘unlashtirishga ham xizmat qiladi.

Ijodiy studiyalar va art-mahsulotlarga ixtisoslashgan to‘garaklar esa tasviriy san’at, teatr, musiqa, adabiy ijod, kino va media kabi sohalarda bolalarning estetik didi,

hissiy anglashi va tasavvurini boyitishga yo'naltirilgan. Bu yerda kreativ fikrlash insonning ichki dunyosi, hissiy ruhiyati va individual ekspressiyasi orqali namoyon bo'ladi. Ijodiy studiyalarda bola o'z g'oyasini ifoda etish, estetik baholash va obrazli fikrlash orqali shaxs sifatida kamol topadi[4].

Umuman, bu kabi markazlar va tuzilmalar to'garak faoliyatini sun'iy emas, balki hayotiy va amaliyotga yaqin asosda tashkil etish imkonini beradi. Ular orqali kreativ fikrlash faqat nazariy tushuncha emas, balki bolaning kundalik faoliyati, yaratish jarayoni va ijtimoiy ongining ajralmas qismiga aylanadi. Bu esa ta'limning zamonaviy maqsadlari bilan to'liq uyg'unlikda yuz beradi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish faqat metod va texnologiyalarga bog'liq emas, balki o'quvchi faoliyati kechadigan **ijodiy muhit** va uning psixologik-pedagogik xususiyatlariha ham uzviy tarzda bog'liqdir. Zero, kreativlik ildizi tabiiy ravishda mavjud bo'lsa-da, uning yuzaga chiqishi va faol rivojlanishi uchun erkinlik, ishonch, emotsiyonal xavfsizlik va ilhomlantiruvchi muhit zarur. Agar o'quvchi o'zini baholanishdan qo'rmasdan, o'z fikrini erkin bildirish, yangicha yondashuv taklif qilish va xatolardan xulosa chiqarish imkoniga ega bo'lsa, u holda u kreativ jarayonga to'laqonli kirisha oladi. Shu nuqtai nazardan, to'garaklarda kreativ fikrlashni tarbiyalash uchun maxsus ijodiy muhit yaratish va uning psixologik-pedagogik shartlarini ta'minlash ta'lim jarayonining muhim shartiga aylanadi.

Bunday muhitda motivatsiya ham muhim rol o'ynaydi. Ijodiy faoliyatni kuchaytiruvchi motivatsiya bu asosan ichki, ya'ni shaxsning qiziqishi, qizg'inligi, yaratuvchanlikka intilishi, o'zini anglash va o'zini namoyon qilish ehtiyoji bilan bog'liq bo'ladi. Kreativ muhitda bunday motivatsiya "Men kreativman", "Mening fikrim qimmatli" degan ichki ishonch bilan uyg'un holda rivojlanadi. Agar ta'lim jarayonida topshiriqlar mazmunli, qiziqarli, tanlovli va o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlariga mos kelsa, motivatsiya tabiiy ravishda yuzaga keladi[2].

Jamoaviy ijodiy faoliyatda o'quvchilar nafaqat o'z fikrini bildirish, balki boshqalar fikrini ham to'g'ri qabul qilish, to'ldirish, tahlil qilish va kerak bo'lsa, birgalikda yangidan yaratish jarayonida ishtirok etadilar. Bu jarayonda xar bir a'zo o'z "men"ini anglab, umumiy ijodga hissa qo'shamdi. Natijada, shaxsiy g'oyalar jamoaviy muhokama, integratsiya va qayta ishslash orqali yangi, yuqori sifatli yechimlarga aylanadi. Bu esa divergent va sintetik fikrlashning faol rivojlanishiga zamin yaratadi. Zero, "Jamoadagi ijodiy faoliyat o'quvchilar o'rtasida muloqot va hamkorlik qobiliyatini shakllantiradi, bunda har bir a'zo o'zining shaxsiy g'oyasi bilan boshqalar fikrini boyitish imkoniyatiga ega bo'ladi"[6].

Xulosa, to'garaklar faoliyati o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun samarali pedagogik muhit hisoblanadi. Bu jarayonda to'garakning ta'limiy-ma'naviy vazifalari, erkin va ilhomlantiruvchi ijodiy muhiti, kreativlikni qo'llab-quvvatlovchi metodik yondashuvlar, pedagogning shaxsiy ilhami va tashabbuskorligi, shuningdek,

makro-mikro pedagogik omillar tizimi o‘zaro uyg‘unlikda ishlaydi. Xususan, to‘garak rahbarining shaxsiyati, mакtabning resurslar bilan ta’minlanganligi, oilaviy hamkorlik va davlat siyosati bilan uyg‘unlikda olib borilgan faoliyat natijasida o‘quvchida mustaqil, yaratuvchan va innovatsion fikrلaydigan shaxs sifatida shakllanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Қиржигитов Т.Р., Холмуродов Т.Э., Фаниев А.А. // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2023. – Т. 3. – №1. – Б.101.
2. Маркова А.К. Развитие мотивации учения: учебное пособие. - М.: Просвещение, 2010. - С. 47
3. Болтаева Ш. Бошлангич таълимда тўгарак фаолияти орқали ўқувчиларнинг салоҳиятини ривожлантириш. – Т.: 2022. – Б. 78.
4. Солиев И., Мамараимов У. // Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – Т. 3. – №1. – Б. 129.
5. Қиржигитов Т.Р., Холмуродов Т.Э., Фаниев А.А. // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2023. – Т. 3. – №1. – Б. 104.
6. Болтаева Ш. Бошлангич таълимда тўгарак фаолияти орқали ўқувчиларнинг салоҳиятини ривожлантириш. - Т.: 2022. - Б. 87.